ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

ТЎПЛАМИ

2022 йил 15 апрель



Бухоро

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATINI EGALLASHDA BADIIY MATNLAR USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH

N.X.Aslanova
BVXTXQTMOHM Maktabgacha,
boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi o'qituvchisi
Z.S.Nutfulloyeva
Buxdu Xorijiy tillar fakulteti
4-bosqich talabasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining **"Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi Qaroriga muvofiq, tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi. Konsepsiyaga ko'ra boshlang'ich sinflarda inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlar birinchidan, "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim mazmuniga keng singdirishdan iborat. Shuningdek, o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish orqali o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda mutolaa madaniyatini egallash yuzasidan eng qulay fanlar sifatida ona tili va o'qish savodxonligi fanlari muhim o'ringa ega. Chunki mutolaa orqali bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilish, o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka ijobiy munosabat, kattalar va tengdoshlari bilan kommunikativ va ijtimoiy hamkorlik qilishga motivlarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Kitob o'qish orqali o'quvchilarda bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi, o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi, yoshi xususiyatlariga mos shaxsiy fazilatlarning shakllanishi kuzatiladi. Kichik maktab yoshida ba'zi tushunchalarni ongli ravishda anglashga kattalar tomonidan tashkil etiladigan tushuntirish ishlari esa o'quvchiga komil inson uchun muhim bo'lgan xavfsiz hayot ko'nikmalarining shakllanishi, kasblar olami to'g'risida tasavvurlarning kengayishi, kasbga va mehnatga qiziqishning paydo bo'lishi, vijdonan mehnat qilishga o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatishga, muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirishga olib keladi. Badiiy asarning ongli tarzdagi mutollasi va tahlili orqali o'quvchilarni erta yoshdan boshlab o'zini-o'zi baholashga o'rgatish, turli faoliyat (ta'lim olish, o'yin, mehnat)da o'zini namunali ko'rsatish, tengdoshlari bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar tajribasini boyitish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, o'zbek tilining betakror nutqiy ko'nikmalarini o'rganishga olib keladi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgani haqida ma'lumot berganlar. **Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26000dan ortiq ekan.** Ana shunday go'zal nutqning betakror shakllari, namunalari sifatida yuzaga kelgan so'z durdonalari — afsonalar, asotirlar, dostonlar, ertaklar, maqolu matallar, topishmoqlar, qo'shiqlar, she'rlar, dramalar, hikoya, qissa va romanlar insoniyat badiiy dahosining noyob shahodatnomalari sifatida yashab kelmoqda, yaratilmoqda va, albatta, bundan keyin ham yaratiladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun kichik yoshdagi o'quvchilarga xalqimiz qadriyatlarini tarannum etuvchi badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari mutolaasi va

ulardagi asosiy mazmunni tushunishning o'ta qulay usul va vositalarini ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqmoqda.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyati barcha darslarda amalga oshiriladi va bu faoliyat quyidagi vazifalarni hal etadi:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshi, to'g'ri o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish;
2. O'quvchilarni tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish;
3. Bilim olishga o'rgatish, kitob bilan ishlashni biladigan, chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish;
4. O'quvchilarning nutqini va tafakkurini o'stirish. Adabiy tasavvurni shakllantirish.

Bu vazifalarni hal etish jarayonida esa turli maqsadlarni qo'yish va shu maqsadlar yuzasidan turli faoliyat usullarini ishlab chiqish ijobiy samara beradi. Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish bilan bog'liq musobaqa mashqlarni bajarish mumkin. Bu mashqlar asosan,

1. diqqat va e'tiborni jamlash;
2. ko'rish maydonini kengaytirish;
3. xotirani mustahkamlashga asoslangan bo'lishi kerak.

To'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish sifatlarini ta'minlovchi mashqlarga o'quvchilarda faol fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi zamonaviy o'yin-mashqlar misol bo'la oladi. Masalan, **"Matnni tasvirlash", "HA yoki YO"Q", "Matn ichidan top"** kabi innovatsion o'yinlar o'quvchilarni faollashtirishga, matnni tez o'qish, ongli idrok etishga yordam beradi. Mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar matnni mutolaa qilishga majbur bo'ladilar, o'zlari sezmagan holda asosiy mazmunni anglaydilar.

"Matn ichidan top" mashqi

O'quvchilar bilan matn mutolaasidan keyin mustahkamlash yuzasidan savollarning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin. Misol uchun information yoki badiiy matn ustida quyidagi tarzda ishlanadi. O'qituvchi matndan qandaydir ma'lumot aytadi. O'quvchilar qaysi qahramonga tegishli ekanligini topadilar. **Masalan:**

1. Yaylovda tug'ilibdi… (Qo'zichoq)
2. Qo'zichoqni ko'rgan ….hayron bo'lib qolishibdi. (qo'ylar)
3. O'-ho', ajoyib qo'chqorcha ekan, debdi….. (Qora Qo'chqor)
4. Bechora yuragini hovuchlab to'rt tomonga yuguribdi (Ona Qo'y)
5. Antiqa, antiqa, – debdi …… (Oq Qo'chqor)
6. G'alati-g'alati qiliqlar chiqara boshlabdi (Qo'zichoq)
7. Eh, shoxlarim tezroq o'sa qolsa edi, o'zimni ko'rsatib qo'yardim (?)
8. Bir kuni u yana yo'qolib qolibdi (qo'zichoq)
9. To'g'ri aytasiz, bunaqa antiqa qo'zilar kam tug'iladi (qo'ylar)

Qo'zichoq ***Rauf Tolib***

Yaylovda bir Qo'zichoq tug'ilibdi. Ikki ko'zi munchoqday, yunglari jingalak-jingalak, quyosh nurida jimirlab, ko'zni qamashtirar ekan. Qo'zichoqni ko'rgan qo'ylar hayron bo'lib qolishibdi.

Voy, qo'zichoq ham shunaqa chiroyli bo'ladimi-ya? – deyishibdi bir-birlariga.

– O'zimning shirintoyimdan aylanib ketay, – yalab-yulqabdi Ona qo'y. Qo'zichoq juda tez o'sa boshlabdi. Keng, yashil yaylovda irg'ishlab sira-sira tolmas, dikanglab, onasining ketidan qolmas ekan. U bir-ikki oy deganda ancha to'lishib, barra o'tlarni yeb semiribdi. Yanayam ko'zga tashlanibdi. Ko'rganlar uni maqtashga tushishibdi.

– O'-ho', ajoyib qo'chqorcha ekan, – debdi burama shoxli Qora Qo'chqor unga havas bilan boqib.

– Antiqa, antiqa, – debdi Oq Qo'chqor. Bu gaplardan Qo'zichoqning burni ko'tarilib ketibdi.

– To'g'ri aytasiz, bunaqa antiqa qo'zilar kam tug'iladi, – ularning gapini quvvatlashibdi qo'ylar.

Qo'zichoq: «Ana eshityapsizlarmi?» – deganday yon-veridagi qo'zilarga qarab qo'yibdi. Ammo Qo'zichoq o'zi haqidagi maqtovlarni eshitib, tobora taltayib ketibdi, bosar-tusarini

bilmay qolibdi. Kunlar o‘tib Qo‘zichoq g‘alati-g‘alati qiliqlar chiqara boshlabdi. U boshqa qo‘zilarga qo‘shilmay, alohida yurarkan. Boshqalarni mensimay, gerdayib qararkan. Avvaliga uning bu qiliqlariga hech kim parvo qilmabdi. «Turishini qarang, katta bo‘lsa bo‘rilarning ham dodini beradi», – degan maqtovlardan Qo‘zichoqning og‘zi qulog‘iga yetibdi.

– Eh, shoxlarim tezroq o‘sa qolsa edi, o‘zimni ko‘rsatib qo‘yardim...

Qo‘zichoq ko‘ngli tusagan joylarda o‘tlar, atay butalar ichida qolib ketar ekan. Ona Qo‘y Qo‘zichoqdan xavotirlana boshlabdi. Bir kuni Qo‘zichoq yo‘qolib qolibdi. Ona Qo‘y uni qidira-qidira soy bo‘yidagi o‘tloqdan topibdi.

– Bolam-ey, naq o‘takamni yorib yubording-ku! Bo‘ri yoki Tulki ilib ketdimi, deb yig‘layverib, yuguraverib, jonimda jon qolmadi, – debdi ranjib.

– Buncha qo‘rqasiz, shu shoxlarim bilan o‘sha Bo‘ringizni qornidan darcha ochib qo‘yaman, – kerilibdi Qo‘zichoq.

– Hay-hay, bolam, o‘zingni bos... Bilmadim, sen nega bunday kekkaygan chiqding?

– Nima, kekkaysam, arzimabdimi? Men zo‘rman. Qarab turasiz, oyi, bir kun men o‘sha Bo‘rining ham dodini beraman.

– Qo‘y, birovlarning gap-so‘zlariga quloq solma, bolam, – nasihat qilibdi Ona Qo‘y. Ammo Qo‘zichoq gerdayishni qo‘ymabdi. Bir kuni u yana yo‘qolib qolibdi. Bechora Ona Qo‘y yuragini hovuchlab to‘rt tomonga yuguribdi, izlabdi, bo‘zlabdi. Qorong‘i tushgach, topa olmay nochor qo‘raga qaytibdi. Ertasiga yana izlabdi. Do‘ng orqasidagi pastqam jarlikda o‘g‘lining tanish terisini ko‘rib qolibdi. Ona Qo‘y quruq maqtovlarga uchib, Bo‘riga yem bo‘lgan Qo‘zichoqning terisini ko‘ziga surtib yum-yum yig‘labdi. [2; 60-61-b.]

“HA yoki YO’Q” mashqi

Ushbu mashq turi o’quvchilarga matn mazmunini yanada aniqroq tushunishga, ularda fikrlash va diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. O’qituvchi yoki bir o’quvchi matndagi gaplarning faqat so’roq formasi orqali savol beradi. O’quvchilar parta boshidan birma-bir “HA” yoki “YOQ” deb javob beradilar. To’g’ri javob bergan o’quvchilar rag’batlantiriladi. Diqqati matn mazmunidan chetda qolgan, yoki noto’g’ri javob bergan o’quvchiga qaytib savol beriladi yoki matnni o’qishda davom etish vazifasi beriladi. Mashq asosida o’quvchilar matnni qaytib mutolaa qilgandek bo’ladilar va matn mohiyatini yanada yaxshiroq tushunadilar.

Keksa kulol va shogird

Qudrat Hikmat

Bir mo‘ysafid kulolning uyiga o‘g‘lini boshlab kelibdi. Unga hunar o‘rgatishni iltimos qilibdi. Kulol rozi bo‘libdi.

Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o‘choqqa o‘t qalabdi. Xullas, uning aytganlarini bajo keltirib yuribdi.

Oradan bir necha qish-u yoz o‘tibdi. Shogird: “Kulolchilikni miridan sirigacha bilib oldim, endi yugurdak bo‘lib yuramanmi?” – debdi-da, ustozidan javob so‘rabdi.

Kulol bo‘lsa:

– O‘g‘lim, hunar injiq narsa, sabr-toqat qilib, yana biror yil menga qarashib, o‘rganib turganing ma’qul edi, – debdi.

Shogirdning sabri chidamay, ustozini holi-joniga qo‘ymay, fotihasini olibdi.

Katta bozorda do‘kon ochgan kunlari xaridorlar uning piyola, choynak, ko‘zachalarini talashib olib ketishibdi. Ustozi bo‘lsa: “Mayli, oxiri xayrli bo‘lsin!” – deb o‘z yumushini davom ettiraveribdi.

Oradan biroz vaqt o‘tar-o‘tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini xarid qilmay qo‘yishibdi. U yasagan lagan, tovoqlarning sirlari xiralashib, ko‘chib ketayotgan emish. Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko‘p aziyat chekibdi. Nihoyat, kulolnikiga pushaymon bo‘lib qaytib kelibdi.

Kulol uning joniga tag‘in ora kiribdi.

Kunlar o‘tibdi. Shogirdiga kulol:

– Bolam, alaxsimay, razm solib tur! – debdi-da, qurigan idishlarini bir-bir puflab, so‘ngra sir beribdi. Shunda lagan-u tovoqlarning chiroyi yanada ochilib, yarqirab ketibdi.

Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog‘labdi.

Savollarga “ha” yoki “yo’q” javoblarni tezda belgilab chiqing

1. Mo‘ysafid o‘g‘lini kulolga shogirdlikka berdimi?
A) Ha
B) Yo’q
2. Shogird ustozinikidan tezroq ketmoqchi bo‘ldimi?
A) Ha
B) Yo’q
3. Matnda aytib o‘tilgan shogird yasagan buyumlar o’zbek xalqining milliy uy-ro’zg’or buyumlari hisoblanadimi?
A) Ha
B) Yo’q
4. Shogird yana kulolning yoniga qaytib keldimi?
A) Ha
B) Yo’q
5. Shogird hunarni to‘laligicha o‘zlashtirdimi?
A) Ha
B) Yo’q

Ushbu o’yin mashq orqali o’quvchilarda o’qish sifatlari bilan birgalikda axborot bilan ishlash kompetensiyasi ham shakllanadi. Xulosa sifatida ota-onalar orasida ko’pgina munozaralarga sabab bo’ladigan muammoli savollarga e’tibor qaratsak, nega bolalarning kitob o‘qimasligi, buning uchun ota-onalar oilada, o’qituvchilar esa ta’lim muassasalarida nima ishlar qilishimiz kerakligi, mutolaa bolaga nima berishi, bolani o‘qishga qanday o‘rgatish mumkinligi yuqoridagi fikrlar va o’yin mashqlar orqali o’quvchilarga ijobiy ta’sir etishi yuzasidan taklif va ko’rsatmalar sifatida bayon etildi. Avvalambor, bolalarga berilgan vazifani bajarishni o‘rgatishimiz kerak. Buning uchun beriladigan vazifa bola uchun quvonchli kayfiyat bag‘ishlashi zarur. Sen vazifani uddalamading, bu ishing o‘xshamadi, deb bolalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘yishimiz mumkin. “Sen mana shu matnni tezda o‘qib chiq”, deyishdan ko‘ra, “matnga yangi sarlavha o’ylab top”, “matn ichidan unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topib, tezda tagiga qalam bilan chizib chiq”, “matnda nechta undosh tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar mavjud ekan”, “matndan **kim?** yoki **nima?** so’rog’iga javov beradigan so’zlarni top”, “matndan **qanday?** yoki **qanaqa?** so’rog’iga javov beradigan so’zlarni top”, “matndagi barcha darak gaplarni so’roq gaplarga aylantir”... tarzidagi vazifalar orqali matn, hikoya haqida ma’lumot to‘plashga, o’quvchining matn bilan tanishishiga imkon berishimiz kerak. Matn asosida ishlangan rasm yoki animatsiyalar ham matn mazmunini tushunishga yordam berishini unutmasligimiz kerak. Doimiy vazifasini esga solib turish orqali o’quvchilarni zeriktirmasdan, faoliyat turini yangilash, o’yin-musobaqalar, hozirjavoblik mashqlari, yangi nomdagi ta’limiy o’yin turlari orqali ham biz ko’zlangan maqsadimizga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев М. БАДИИЙ МАТН ЛИНГВОПОЭТИКАСИ. Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2008 й. Б-3
2. O‘QISH KITOBI. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashr TOSHKENT «YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS» 2017 B-37.
3. www.lex.uz
4. www.ertak.uz

Алимова Нозима Ражаббоевна, Исмоилов Иброҳим. ТАЪЛИМДА ИНТЕГРАЦИЯ, ИНДИВИДУАЛ ВА ДИФФЕРЕНЦИАЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ ВА ФАРҚЛАРИ 67
N.X.Aslanova, Z.S.Nutfulloyeva. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATINI EGALLASHDA BADIIY MATNLAR USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH 69

2-ШЎЪБА. XXI АСР ИНГЛИЗ ВА АМЕРИКА АДАБИЁТИ. АДАБИЁТ, САНЪАТ ВА ЗАМОН. ҚИЁСИЙ АДАБИЁТШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ..... 73

Pak Olga. THE USING OF EMOTIVENESS IN CHARLES DICKEN`S NOVELS 73
Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna. EXPLANATION OF AGRICULTURAL TERMS IN DICTIONARIES 77
Xajiyeva Feruza Melsovna, Rajabova Zebiniso Anvarovna. AMERIKA YOZUVCHISI LAYLA LALAMI IJODINING XRONOLOGIK TADQIQI 79
O.Kh.Ganiyeva, Z. .Tilakova. ESSENTIAL CRITICISM OF "ADOLAT MANZILI" ("JUSTICE VENUE") BY ADIL YAKUBOV 82
O.X.Ganiyeva, Sh.B.Xodjayeva. ERNEST HEMINGUEY – MOHIR NOSIR 84
Nazarova Navbahor Ahrorovna. ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI 86
Umarova Xurshida Zikiryoxonovna. FALSAFIY-PSIXOLOGIK ROMAN XUSUSIYATLARI ("GERSTOG" ROMANI MISOLIDA) 88
Xabibullayeva R.M. ONA MAVZUSIDAGI SHE'RLARNING BADIIY XUSUSIYATLARI (TASHBEHLAR TAHLILI) 89
Xamdamova Gulnoza Xotam qizi. O'ZBEK ('QIZIMGA MAKTUBLAR'-O'. UMARBEKOV) VA AMERIKA (TUESDAYS WITH MORRIE-A. MITCH) ADABIYOTI XOTIRA ASARLARINING QIYOSIY ANALIZI VA ULARNING MUSHTARAK XUSUSIYATLARI 92
Sobirova Zarnigor Rahimovna, Gayratova Dilnoza G`ayrat qizi. O`ZBEK VA XORIJ ADABIYOTIDA EVFEMIZMLARNING PAYDO BO`LISHI VA RIVOJLANISHI. 94
Sobirova Zarnigor Rakhimovna, Zamira Baxramova Raximovna. DEFINITION OF BARBARISM AND HISTORY OF OCCURRENCE 96
Шаҳодат Усмонова. ЗАМОНАВИЙ ГАЗЕТА МАТНИДА ЭКСПРЕССИВ КОНТЕКСТЛАР: РИТОРИК ТАҲЛИЛ 99
Rakhmatova M.M., Botirova N.F. CHICANO POETRY: NEW TENDENCIES IN AMERICAN POETRY 102
Qurbonova Nodira Roziqovna, Yoriyeva Maftuna Umedovna. THE DESCRIPTION OF NATIVE AMERICAN STEREOTYPES IN THE NOVEL 'THE LAST OF THE MOHICANS' BY FENIMORE COOPER. 103
Elmanova Mastura Toshnazarovna, Xusainov Abdulaziz. WONDER WOMAN OR TRUE STORY OF MODERN RECORD OF THE GREATEST WRITES OF OUR TIME. 106
Djumayeva Gulnora Zokirovna. "THE LAW AND THE LADY" WRITTEN IN THE GENRE OF "LADIES' ROMANCE" BY WILKIE COLLINS 109
Jabbarova Malohat Hamdamovna. A DESCRIPTION OF THE ARTISTIC IMAGE OF THE WORKS OF GUY DE MOPASSAN AND ABDULLAH QADIRI 112
Khaitova Gulshan Bahodirovna. PROBLEMS OF TRANSLATION OF TERMS RELATED TO MELIORATION AND AGRICULTURE IN ABSTRACTS 114
Hayotova Dilafro'z Zoyirovna. NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA "VATAN" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI VA TADQIQI 116
Ruzmetova Ozoda Alimovna. MATEMATIK TERMINLAR SHAKLLANISHIDA LEKSIK DERIVATSIYANING O'RNI. 121
Jalilova Lola, Sharopova Farida. INGLIZ ADABIYOTIDA HIKOYA JANRI RIVOJI 122